IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

G‘AFUR G‘ULOMNING "SHUM BOLA " QISSASIDA KELTIRILGAN MAQOL VA MATALLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Guljaxon AbdurasulovaXayrullo qizi

Namangan davlat universiteti, 1-kurs magistranti

sayidaliyevaguljaxon@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20098528

Rezyume: Xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi va eng qisqa namunasi bo’lgan maqol va matallar badiiy adabiyotning nasriy asarlarida ham keng qo’llanadi. Ushbu maqolada G‘afur G‘ulomning "Shum bola" qissasida foydalanilgan maqol va matallar lingvokulturologik tahlil qilinib, ularning yozuvchi ijodida tutgan o’rni o‘rganib chiqildi.

Kalit so'zlar : qissa , lingvokulturologiya , maqol, matal, xalqona ruh.

Resume. Proverbs and sayings, which are the most ancient and short examples of folk oral creativity, are also widely used in literary works. This article analyzes the linguistic and cultural analysis of proverbs and sayings used in Gafur Ghulam's story "Shum Bola" and examines their place in the writer's work.

Резюме. Пословицы и изречения, являющиеся древнейшими и кратчайшими примерами народного устного творчества, также широко используются в прозаических художественных произведениях. В данной статье проводится лингвокультурный анализ пословиц и изречений, использованных в рассказе Гафура Гулама «Шум Бола», и исследуется их роль в творчестве писателя.

O‘zbek tilshunosligida maqollar, asosan, XX asrning ikkinchi yarmidan maxsus tadqiqot obyektiga aylandi va xuddi shu davrdan boshlab lingvokulturologiya masalalariga bag‘ishlangan ilk tadqiqotlar N.Mahmudov1, D.Xudoyberganova2 , Sh.Usmonova3 kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Shuningdek, o‘zbek tili turli-tuman mavzudagi maqollarga boy ekanligi professor O‘.Q.Yusupov va boshqa bir qancha tilshunos va adabiyotshunoslarning ishlarida ta’kidlab o‘tilgan.

Professor O‘.Yusupovning fikricha, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko‘rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. “Zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va, ayni paytda, quroli hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatning tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko‘rinishida, ya’ni so‘zlar vositasida ifoda etadi”4. Bu birliklar tarkibida xalq donoligini ifodalovchi so‘zlar – maqollar, aniqrog‘i, paremalar alohida ajralib turadi. Zero, ularda xalq o‘zining bor tajribasini aql-zakovati bilan uyg‘unlashtirgan holda namoyon qiladi.

1 Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. № 5. – Б. 10
2 Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013.
3 Усманова Ш. Лингвокультурология. – Тошкент: Университет, 2014
4 Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликда янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилоҳлар // Филология масалалари. – Тошкент, 2011. – № 2. – 24-б

Maqollar ongda stereotip darajasida o‘rnashadi va shu asosda inson atrofida va o‘zida kechayotgan har bir hodisani baholaydi. Shu tarzda maqol va matallar borliqni baholashning milliy-madaniy mezoni sifatida yashaydi.

Lekin har qanday maqol ham lingvokulturologik tadqiq predmeti bo‘lavermaydi. Maqollar, albatta, milliy mental xarakterga ega bo‘lishi, o‘zida shu xalq madaniyati, tarixiy yashash tarzini ifodalashi kerak.

“O‘zbek xalq maqollari”da maqollarning 70 dan ortiq mavzu guruhlari jamlangan. Maqollarda o‘zbek xalqining ko‘p asrlik hayotiy tajribalar xulosasi tugal tarzda ifoda qilingan. Tuzuvchi T.Mirzayev yozishicha, “maqollar so‘z san’ati mahsuli sifatida o‘z ma’nosida, ko‘chma ma’noda va har ikkala ma’noda qo‘llanilishi mumkin”5. Bu esa maqollar yordamida ko'plab ma‘no anglash mumkinligini bildiradi.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida xalqona ruh, hayotiylik, kulgi va ijtimoiy tahlilni o‘ziga xos tarzda uyg‘unlashtirgan yozuvchilar qatorida G‘afur G‘ulomning o‘rni beqiyosdir. Uning hikoya va qissalarida xalq tilining barcha qatlamlari — maqol, matal, afsona, hazil-mutoyiba, xalq iboralari faol qo‘llanadi. Maqol va matallar adib uslubining asosiy belgilardan biri bo‘lib, ular o‘zbek xalqining madaniy merosi, asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi lingvokulturologik birliklardir.Chunki “ ... maqollar xalq hayotini, uning o‘tmishdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy turmush darajasini o‘rganishda noyob manba bo‘lib xizmat qiladilar. Bu narsa turli ijtimoiy munosabatlarning xalqning axloqiy me’yorlari va e’tiqodlarining, maishiy turmushi va mehnati, sevgisi va nafrati, ozod hayot uchun intilishlarining obyektiv, ixcham va lo‘nda aks etganligida ko‘rinadi” 6. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday ta’rif berilgan: «***Maqol*** [*a.* قال م – *maqol, kichik asar; so‘z, nutq*] hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli, tugal ma’noli va hikmatli ibora, gap»7 .

Maqol va matallar xalqning ijtimoiy hayotidagi qadimiy donishmandlikning ifodasi sifatida nafaqat adabiy-badiiy qiymatga, balki etnopsixologik, madaniy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Shuning uchun G‘afur G‘ulom ijodini o‘rganishda bu birliklarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish muhimdir.

Shum bola asari G‘afur G‘ulom ijodining nasrdagi yuksak cho‘qqisi hisoblanadi. Asarlardan misollar asosida batafsil tahlil qilib ko‘rsak. Qissada qahramon pochchasining qumrisiga movoza qilgan mollarini bozorga solib , Omon bilan birgalikda uncha-muncha pul ishlaydi. Oshpaz bilan ovqat olishadi.

Ovqatdan so‘ng, maza qilib kerishib oldik. Tuxum, so‘k, qurtlarni mening belbog‘imga tugib oldik. Omon:

— *Oziqlik ot horimas*, qolgan zog‘orani ham ro‘molga tugib qo‘y, — dedi.

“Oziqlik ot horimas” maqoli xalqimiz orasida uzoq safar, katta ish yoki mashaqqatli mehnat oldidan puxta tayyorgarlik ko‘rish muhimligini anglatadi.Agar otning ozuqasi (yemi) yetarli va sifatli bo‘lsa, u uzoq yo‘lda charchamaydi, manzilga yetib boradi. Xuddi shunday, asar qahramonlari ham zog‘orani zaxira qilib olish orqali ko'zlagan manzilga yetib olishini o'ylaydi

5 O‘zbek xalq maqollari. Toshkent, 2005. 6-b.
6 O‘zbek xalq maqollari. Ikki jildlik. 1-jild. – Toshkent, 1987.- 18 b
7 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. Ikkinchi jild. Ye–M. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.- 569 b

Lingvokulturologik jihatidan esa, inson ham ruhan va jismonan quvvatga (oziqqa) ega bo‘lsa, qiyinchiliklar qarshisida taslim bo‘lmaydi.

Qovun bilan tugunchani men, tarvuzni Omon ko‘tarib oldi. “*Semizlikni qo‘y ko‘tarar*”, deganlaridek, Omonga badavlatlik yoqmas edi. O‘rtadagi hamma pulimiz allaqachon uch so‘mdan oshib ketgani uchun Omon yangi qiliq — boyvachcha qiliq chiqara boshladi8.

Semizlikni qo‘y ko‘tara oladi, ammo odam ko‘tara olmaydi.Haddan tashqari semirib ketgan odam kasalga tez chalinadigan va uncha-muncha kasallikni ko‘tara olmaydigan bo‘ladi" , degan ma'noda qo‘llaydilar 9.

Shum bola “oshiq-ma’shuq ”suhbatga mashg‘ul bo‘lgan paytda qorni to'ydirishga uchun tandirdan qo'lini chiqarib , laganga uzata boshladi . Ikki- uch urinishdayoq lagan bo‘shay deb qoldi. Bir mahal yigit uni payqab qoladi. Dod-voy qilmaslik sharti bilan sulh tuzilib , xotin ikki jizzalik non , yigit esa ikki tanga pul beradi .

Shuning bilan “*yopiqlik qozon — yopiqlik*”, meni chiqarib, chiqishimda “*tuya ko‘rdingmi — yo‘q*” qilib, menga qasam ham ichirdilar.10

Yopig‘liq qozon yopig‘liq qolsin. Mazmuni : bu gap shu yerda qolsin, hech kimga aytma yoxud bu sir pinhoniy bo’lib qolsin, hech kim undan xabardor bo’lmasin, degan ma’noni anglatadi11.

“*Yangi yorni ko‘rganda, eskidan kechmoq kerak*”12 . Asardagi Rahmat hoji marg‘ilonlik xotinini uyga olib kelib, Oysha yallachiga (xotiniga) qiyo qaramay qo'yadi. G‘afur G‘ulom bu o‘rinda latifanamo rivoyatni keltirib , asarda ushbu maqollardan juda o‘rinli foydalangan.Taniqli munaqqid Ozod Sharafiddinov fikriga ko‘ra: “U nafaqat mohir latifago‘y edi, balki o‘zi ham qanchadan qancha yangi latifalarni to‘qib chiqarar, keyin ular Nasriddin afandi haqidagi hikoyalar tarzida keng tarqalardi”.13

... ‘‘ *Sheriklik oshni it ichmas*’’deganlar, aylanay, poshshaxon. Men-ku ersirab ketayotganim yo‘q. Agar istasam , qadamimda yuztasi topiladi. Ne-ne dang‘illama mehmonxonalar Oyshaxonga muntazir. Peshonam-u ikki betim , engakim yopishtiriladirgan o‘n so‘mlik tillolarga to‘lib ketadi. Bitta qiyg‘ir bo‘yin qilish bilan osmondagi qushni ovlayman. Mening uchun gap pulda ham emas. Erda ham emas. Siz yosh ekansiz, sizga rahmim kelyapti. 14

*Sheriklik oshni it ichmas.*Odatda ikki it bir yalog‘dan ovqat yeb qolgudek bo‘lsa, bir-biri bilan tortishib, irillashib, urushib ketadi. Bu sheriklikda ish qilib, o‘zaro chiqisholmay, urushib, janjallashadigan odamlarga qarata istehzo va kinoya tarzida qo‘llaydilar.

8 G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr .—T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012y.352 b.174-bet.
9 Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Nega shunday deymiz? O‘zbek xalq maqollarining izohli lug’ati. – Toshkent: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.–352b.236-bet.
10 G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr .—T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012y.352 b.198-bet.
11 Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh., Hikmatnoma, - Toshkent, 1990.130-bet.
12 G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr .—T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012y.352 b.254-bet.
13 Jadid, “SHUM BOLA”NING JOZIBASI, 10 may 2024
14 G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr .—T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012y.352 b.254-bet.

...Men-ku, aytganim yo‘q. Ammo el og‘ziga elak tutib bo‘lmaydi. Oyni etak bilan yopib bo‘maydi... 15

Oyni etak bilan yopib bo‘lmas. Majozan: xiyonat , jinoyat , ayb, gunoh qilib qo'ygan odam buni yashirishga har qancha urinmasin , baribir bir kunmas- bir kun oshkor bo‘lmay qolmaydi, qo‘lga tushib jazosini topadi.16

Asar davomida shum bola ko‘p qiyinchiliklarga duch kelishini, adolatsizlikka ham uchraganini ko‘rishimiz mumkin. Hatto uni o‘griga chiqarishadi. “*O‘zingni ehtiyot tut, qo‘shningni o‘g‘ri tutma*” 17 .Hoji bobo piromondagi qutisini shum bola boshiga qo'yib uxlabdi, deb o'ylaydi. Lekin u olmagan edi.

Har bir narsangni avvalo o‘zing extiyot qil . Biror narsangni yo‘qotsang yo qo'ygan joyingni eslolmaysangu, birovdan ko'rsang, bu tuhmat unga qattiq botadi, xijolatpazlik bo‘ladi, o‘rtaga sovuqchilik tushadi.18

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, G‘afur G‘ulom asarlaridagi maqol va matallar o‘zbek xalqining ko‘p asrlik madaniy merosini badiiy matn orqali qayta jonlantiradigan lingvokulturologik birliklardir. Ular qahramon xarakterini ochadi, voqeaga milliy ruh bag‘ishlaydi, kulgi va tanqidni kuchaytiradi, tarbiyaviy g‘oyalarni mustahkamlaydi.

15G ‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr .—T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012y.352 b.254-bet.
16 Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Nega shunday deymiz? O‘zbek xalq maqollarining izohli lug’ati. – Toshkent: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.–352b.193-bet.
17 G ‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr .—T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012y.352 b.283-bet.
18 Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Nega shunday deymiz? O‘zbek xalq maqollarining izohli lug’ati. – Toshkent: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.–352b.309-bet.